

### 2023- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,  
mlrd. so'm

**83 267,0**

YAHM o'sish  
sur'ati

**107,9 %**

YAHM deflyator  
indeksi

**111,2 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyunida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 83 267,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-iyunidagi narxlariga nisbatan 111,2 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 17,7 % ga yetdi.



**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>69 405,0</b>	<b>83 267,0</b>	<b>107,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	62 144,2	75 337,8	107,7
mahsulotlarga sof soliqlar	7 260,8	7 929,2	109,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>62 144,2</b>	<b>75 337,8</b>	<b>107,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26 200,8</b>	<b>29 351,4</b>	<b>103,5</b>
sanoat	20 066,8	22 412,8	104,5
qurilish	6 134,0	6 938,6	100,1
<b>xizmatlar</b>	<b>35 943,4</b>	<b>45 986,4</b>	<b>110,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9 838,8	12 864,6	112,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	8 331,8	11 028,5	119,6
boshqa xizmat tarmoqlari	17 772,8	22 093,3	105,5



## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 27 960,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,5 % ga yuqoridir.

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**  
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*



**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**  
*(ming so'mda)*



**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	2022- yil	2023- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	89,5	90,5
mahsulotlarga sof soliqlar	10,5	9,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>42,2</b>	<b>38,9</b>
sanoat	32,3	29,7
qurilish	9,9	9,2
<b>xizmatlar</b>	<b>57,8</b>	<b>61,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,8	17,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	13,4	14,6
boshqa xizmat tarmoqlari	28,6	29,4

## 2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



Sanoat

32,3 %

Qurilish

9,9 %

Xizmatlar

57,8 %

2023- yil



Sanoat

29,7 %

Qurilish

9,2 %

Xizmatlar

61,1 %

● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 90,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 29,7 % ni, qurilish 9,2 % ni va xizmatlar sohasi 61,1 % ni tashkil qildi.



## 2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



7,9

Sanoat



1,3

Mahsulotlarga  
sof soliqlar



1,0

Xizmatlar






5,6

YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 2,1 f.p.) va xizmatlar sohasi – 5,6 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 4,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,0 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 1,4 f.p.)ga ko'paydi.



## 2022-2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





■ 2022- yil  
■ 2023- yil

2023- yilning yanvar-iyunida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda 104,5% (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 29,7%), qurilishda – 100,1% (9,2 %) va xizmatlar sohasida – 110,8% ni (61,1%) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,7% (17,1%), tashish va saqlash, axborot va aloqa 119,6% (14,6%), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,5% dan (29,4%) iborat bo'ldi.





## 2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 111,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 113,0% va xizmatlarda – 115,5% qayd etildi.





## 2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da
2022- yil	29 953,8	48,2
2023- yil	36 570,4	48,5

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 36 570,4 mlrd. so'mni tashkil etib (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 29 953,8 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 48,5 % ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 48,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

